

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2025- yilning I- choragida amalga oshirilgan ishlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasida o‘tkazilgan Kengashning kengaytirilgan yig‘ilishini Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi boshlig‘i T.Ganiyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

Shuningdek, “2025-yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi” doirasida qo‘mita va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2025-yilning I choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma’lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida Yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 9 798,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda 104,3 % ni tashkil qildi.

Respublika korxonalarini tomonidan 2025-yilning yanvar-mart oylari davomida 6 301,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 103,1 % ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 1 740,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024 yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 103,9 % ga yetdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida investitsion faollikning oshganligi kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 124,6 % ni tashkil etdi. Respublikada jami 1 764,4 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 105,8 % ga teng bo‘ldi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 980,3 mlrd. so‘mni, 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 107,3 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 2 992,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga oshdi. Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2025-yilning yanvar-mart oylarida 146,8 mln. AQSh dollarini, jumladan eksport 86,1 mln. AQSh dollarini va import 60,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Davlat xizmatlari markazi tomonidan ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) 33 016 tani tashkil etib, ulardan 21 918 tasi yoki 66,4 % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2025-yilning yanvar-mart oylarida respublikada 982 ta korxonalar va tashkilotlar yangidan tashkil etildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra respublika bo'yicha doimiy aholi soni 2 035,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 5,4 ming kishiga yoki 0,3 % ga o'sdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi boshlig'i T.Ganiyev yig'ilish davomida kun tartibiga muvofiq, tizimda "Statistika dasturi"ning ijrosi hamda yig'ilishning 2025-yil I yarim yillik ish rejasiga kiritilgan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha boshqarmaning mutasaddilari tomonidan hisobotlar berish jarayonida har bir masalani atroflicha muhokama qilinishini ta'kidladi va kun tartibidagi navbatdagi masalalar muhokamasiga o'tilishini e'tirof etdi.